



## XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 27 - iyul

VI-67-138-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

### **Bulung'ur tumanida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish, hududlarni ixtisoslashtirish va kelgusida zaxiraga olinadigan yer maydonlarini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi 709-sonli "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalarini ijaraga berishning ma'muriy reglamenti" va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-iyuldagi 169-sonli Aholi uchun qulay va suv ta'minoti yaxshi bo'lgan ekin yer maydonlarini dehqon xo'jaligini yuritish uchun ajratish ishlarini tizimli tashkil etish to'g'risidagi yig'ilish bayoniga ko'ra tumanda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish, tuman hududlarini ixtisoslashtirish va kelgusida zaxiraga olinadigan yer maydonlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi oltmish yettinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-20-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 709-sonli qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-iyuldagi 169-sonli Aholi uchun qulay va suv ta'minoti yaxshi bo'lgan ekin yer maydonlarini dehqon xo'jaligini yuritish uchun ajratish ishlarini tizimli tashkil etish to'g'risidagi yig'ilish bayoni jro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari A. Rizayevning tumanda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish maqsadida 159 gektar yer maydonlarini tuman hokimligi zaxira yer fondiga o'tkazish to'g'risidagi taklifi maqullansin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D. Xabibullayev), Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari (A. Rizayev), tuman qishloq xo'jaligi bo'limi (D. Sulaymonov), tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Bulung'ur tuman kengashi (A. Po'latov) tuman kadastrlar palatasi bo'limi (Sh. Abduqodirov):

tumanda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish maqsadida tuman hokimligi zaxira yer fondiga o'tkaziladigan va zaxira yerlarni davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan 159 gektar yer maydonlarini uch kun muddatda aholi punktlariga yaqin, suv ta'minoti yaxshi bo'lgan yerlardan tanlasin hamda ularning ro'yxatini yerdan foydalanivchilar va konturlar kesimida shakllantirish;

dehqon xo'jaligi tashkil etish uchun tanlangan yer uchastkalarini xalq deputatlari tuman Kengashiga muhokama uchun kiritish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash tuman hokimining o'rinbosari (A. Rizayev) nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha doimiy komissiyasi (A. Shodmonov), zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S. Astonov